

# ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA FOJIAVIYLIK MAVZUSIGA DOIR

**Jamshidbek Xojiyev**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

[xojiyevjamshidbek557@gmail.com](mailto:xojiyevjamshidbek557@gmail.com)

## **Annotation.**

This article focuses on the tragedy in the poetry of the People's Poet of Uzbekistan Abdulla Aripov. The analysis of poems written at different times provides insights into the artistic ideas and thoughts put forward by the poet behind this theme. Conclusions are given about the poet's artistic skills.

## **Keywords:**

Uzbek poetry, analysis of Abdulla Aripov's poems, interpretation of the tragedy

## **Annotasiya.**

Mazkur maqolada O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov she'riyatidagi fojeylik mavzusiga e'tibor qaratiladi. Turli davrlarda yaratilgan she'rlar tahlilida bu mavzu ortida shoir ilgari surgan badiiy g'oyalar, o'y-fikrlar xususida mulohazalar bayon qilinadi. Shoirning badiiy mahorati to'g'risida xulosalar beriladi.

## **Kalit so'zlar:**

O'zbek she'riyati, Abdulla Oripov she'rlari tahlili, fojeylik mavzusi talqini.

Adabiyot shunday maydonki, bunda inson qalbini junbushga keltiradigan, ruhiyat va siyratimizga yorug' hislar, pokiza tuyg'ular baxsh etadigan sehrli oshiyondir.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev "Davr yaratgan she'riyat" nomli maqolasida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she'riyati haqida quyidagi fikr mulohazalarni berib o'tadilar: "Abdulla Orif she'riyati bilan o'zbek lirikasiga ko'ngil suvratlari, orzu-yu armonlar fojiasi, ruhiy iztiroblar manzarasi kirib keldi. Bu she'riyat yuzaga kelgan davrda shaldiroq so'zlarni qofiyaga solish, jahoniy mavzularda na'ravor satrlar tizish odat edi. Mavzuni she'r emas, balki she'rni mavzu mukarram qilardi. Dunyo va undagi olamshumul hodisalar haqida hayqirish talab etilardi. Abdulla Orif quruqshagan o'zbek adabiyotiga o'ychil g'am va g'amchil o'y olib kirdi. Shoir alohida bir odamning ichki dardlari haqida qalam surdi, o'yga botdi. Bu odam shoirning o'zi edi"[1. Qozoqboy Yo'ldoshev. "Milliy ruhiyat me'mori", 654-bet].

Qozoqboy Yo'ldoshevning mazkur fikrlari e'tiborimizni tortdi va uni mushohada qilishga imkoniyatimiz doirasida harakat qildik. Olim yuqoridagi fikrlarda shoir ijodi haqida fikr yuritar ekan, avvalo lirik qahramon fojiasiga to'xtalib o'tadi.

Fojiaviylik o'zi nima? Ma'lumki, dramatik turga mansub tragediya, ya'ni fojia janridagi asarlar bosh qahramonning o'limi bilan yakunlanadi. Ammo asrlar mobaynida o'zbek she'riyati taraqqiyotida insonning kechinmalari, iztiroblari ifodalanib kelinar ekan, lirik qahramonning ruhiy dunyosida turli xil shiddatli to'lg'onishlar, ruhiy sinishlar o'zgacha yo'sinda kashf etilib boradi. Abdulla Oripov she'riyati misolida o'z kuzatishlarimiz va mulohazalarimizni mavzu doirasida yoritishni joiz deb bildik.

Xo'sh, she'riyatda fojiaviylik deganda nimani tushunamiz?

Fojiaviylik – bu insoniy o'zlikning buyukligi natijasida yuzaga keladigan tabiiy holatdir. "Lirik fojeliq mungli hissiyotning she'rdagi ifodasi sifatida tabiiy asosga ega" [2. Suvon Meli. So'zu so'z. 41-bet].

Bu oddiy holat emas, albatta. Mazkur holat pok va xokisor ruhiyat iztirobi va yana mavjud ijtimoiy tuzumning nobop o'yinlaridan charchagan dilning faqat o'z ruhiy dunyosiga intilishi, tashqi dunyodan chekinish holati desak, to'g'ri bo'ladi. Aynan bu jarayon lirik qahramon "men"ida sodir bo'ladi.

Har bir iste'dodli shoir mahoratini belgilovchi asosiy mezon sifatida she'riyatda lirik qahramon xarakterini qay darajada kashf eta olish qudrati yuksak o'rinda turadi. Asrlar mobaynida o'zbek she'riyatida insonning murakkab ruhiy dunyosi, uning xarakter qirralari yoritib kelinadi. Bundan katta tajriba orttirgan, zamonga o'tkir tafakkur ko'zi bilan qarovchi Abdulla Oripovning mahorati shundaki, u o'z she'riyatida keng qirrali va ayni paytda original lirik qahramon xarakterini yarata oldi. Cho'lpon bir she'rida shunday yozgan edi:

Ket, malaklar dostonini o'qima,

Ket, aslsiz ertaklarni to'qima.

Ket, ko'nglimni aldaguvchi yolg'on nur. [3. Cho'lpon, "Yana oldim sozimni", 456-bet]

Lirik qahramon xarakterida hayot va insonni bor murakkabligi, ziddiyati dunyosiga haqiqat ko'zi bilan qarash xususiyati ustun turadi. Shu bois u hayot va inson haqidagi "aslsiz ertaklarga" ishonmaydi. Achchiq haqiqat u uchun yagona e'tiqod. Abdulla Oripov ham lirik xarakter yaratishda haqqoniy yo'l tutdi. Inson xarakterining hali ochilmagan qirralarini, inson ruhiy dunyosida kechishi tabiiy bo'lgan kechinmalarni ana shu lirik xarakter timsolida ifoda etdi. Har qanday tabiiy bo'lmagan narsa sun'iy va soxtadir. Har qanday sun'iy bo'lmagan narsa tabiiy va sofidir. Fikrimizni batafsil yoritish maqsadida adabiyotshunos olimning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni joiz deb topdik: "Abdulla Orif she'riyati pokiza tuyg'ular, ismsiz dardlarning ifodasi edi. Ulardan sokin ohang taralar edi. Mungli bu ohang tuyg'ular bezovtaligidan, ruhiyat tovlanishlaridan, yuzaga kelgandi. Hasratzada, ozurdajon ko'ngil mavjlari, komillikdan "yulduzlar qadar yiroq kishilar" borligidan ozorlanish suvratlari bu she'riyatning manbalari edi".(1, 655-bet). Shoir she'riyatida bitta lirik qahramon bo'lib, uning xarakterining shakllanish bosqichlaridan mukammal xarakter qiyofasiga kirgunicha dialektik tarzda o'sib -o'zgarib, dunyoqarashi va tafakkuri ham o'tkirlashib boradi. Yosh lirik qahramon xarakterining boshlang'ich nuqtadagi holati nihoyatda tabiiy. Buni "Qushcha", "Yulduzlar" she'rlarida kuzatamiz:

Bilsang, men ham chaman o'lkamning,

Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasiman.

Yoki:

Deyman, osmonlarning hiloli bo'lsam,

Hulkar va Zuhrosi bo'lgim keladi.

Shu go'zal o'lkamda kamolga to'lsam,

Porloq yulduzlarday kulgim keladi.

Yulduzlar, o bo'shliq, musaffo chiroy!

Sen ilhom gulida kumush shabnamday.

Ucharman siz bilan bir kun paydar –pay,

Osmon gumbazida bahsga tushganday. [4. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Birinchi jild, 14, 15-betlar].

Insonning hayotga kirib kelishining o'zi g'aroyib olamga o'xshaydi. U yoshlik damlarida nimalar haqida o'ylamaydi, uning qalbida qanday orzular jo'sh urmaydi deysiz. Yuqoridagi misralarda yosh lirik shoir qahramonning ham real, ham romantik dunyosini ko'ramiz. "Osmonlarning Hiloli, Hulkar va Zuhrosi bo'lish", "porloq yulduzlarday kulish" lirik qahramonning naqadar go'zal orzusi. Yoshlikka xos tabiiy va go'zal, tabiatga oshuftalikning beg'uborona ko'rinishi Lirik qahramon yillar sayin Darband daryosidan goh "ayqirsa g'azab tangrisi" kabi goh "qaynab turgan buloq" singari hayotga kirib kela boshladi. Uning tuyg'ulari teranlashib, idroki balandlashib, siyrati ma'nan yuksakka intilib boradi.

Boyligni sevmasman, ya'ni tillodan,

Hamyon aylamoqni kutmagil mendan. (4, 20- bet)

Lirik qahramonning maqsadi insonday yashash. Uni mukammalikka intiltiruvchi fazilatlardan biri samimiylikdir. Nazarimda, Shoir "men"ida bu xususiyat hech bir "men"nikiga o'xshamaydigan yuksak fazilat sifatida namoyon bo'ladi. Abdulla Oripovning o'zi ham: "insoniyatning birinchi

belgisi samimiyat deb bilaman”,- deya e’tirof etadi. [5. A. Oripov, “Ehtiyoj farzandi”,19-bet]. Lirik qahramon xarakterida samimiylikning bir qirrasini o’tgan hayotini taftish qilishi, yaxshi-yu yomon xususiyatlarini anglash va haqqoniy aytishida yaqqol namoyon bo’ladi. Zero, yetuklikka intilishning yo’li ham ana shunda:

Inson o’z umrini o’ylasa ko’p vaqt  
Qiynaydi o’zidan o’tgan qusurlar.  
Kingadir aytilmay qolgan bir rahmat,  
Kimdandir so’ralmay qolgan uzrlar. (4, 279 bet)

Yoki:

Mukammal ko’rmoqchi bo’ldik dunyoni  
Yetuk bo’lolmadik o’zimiz biroq.  
O, yillar armoni, yillar armoni,  
Armoni ko’rmasdim men sendan buyukroq. (4, 279 bet)

Deya yashashning o’zi ham yuksak insonlik sari borishdir. “Insondagi o’zlik- bu katta bir qasr. Uning ustida turib hamma narsani ko’rib, his qilib anglanadi. Zero, Abdulla Oripov lirik qahramonining endigi yashash maqsadi ham shunga qaratilgan va bu lirik qahramon xakteri fojiasi va bu holat go’zalligi bilan ham ulug’dir” (1. 660-bet.) Abdulla Oripov “men”idagi o’zlik tabiatan muhit bilan kelishishga imkon bermaydi. Chunki “Yo’q!...yo’q yaralmadi u bilgan hayot” [6, Rauf Parfi. “Sabr daraxti”. 97-bet]. Shoir asrimiz voqealarini, insonni kuzatar ekan, bu haqdagi, ya’ni “men”idagi junbushga kelgan o’y – kechinmalarini shiddat bilan ifodalab beradi:

Ko’z oldimda shu qadarli pok edi olam,  
Go’yo nurdan yaralgandi inson degan zot...  
O Abdulla ko’zlaringni ochib qaragin ,

Kim aytadi bu dunyoda yo’qdir deb bo’ron... (4.316-bet)

Lirik qahramon xakteridagi davr va zamon, inson haqidagi qarashlari shiddat bilan o’zgarib boradi. Uning tafakkurini inson muammosi chulg’ab oladi:

Men insonni bir insonday sevardim, lekin,

Nechun ko’pdir haligacha razil odamlar. (7. Abdulla Oripov. Ikkinchi jild, 114- bet)

Mana, qalb va hayot o’rtasidagi ziddiyat. Bu hayot turli to’lg’onishlar, qiynalishlarni keltirib chiqaradi. Mana, fojiaiylikning dastlabki nuqtalari. Shoir bu haqdagi haqiqatni jilovlab qo’ymaydi, balki o’kinch va alam bilan e’tirof etadi.

Lirik qahramon fojiaiyiligi inson va jamiyat o’rtasidagi ziddiyatlar, avj nuqtalar mavjud muammo “haligacha razil odamlarning ko’pligi”ni “Odam bolalari” she’rida ham kuzatamiz:

Odam bolalari turfa naqadar,  
Biri mo’min bo’lsa boshqasi asov,  
Biriga quyuqroq salom bersang gar,  
Xushomadgo’y ataydi nomingni darrov.

Mayliga, ataylab biror kun sen ham  
Qad kerib, sipoyu o’ychan bo’lib yur.  
Malomat toshlari boshingga shu dam ,  
Seni ataydilar darhol takabbur. [4. Abdulla Oripov, 2-jild, 53-bet]

Xo’sh, insonlar orasida qanday yashash kerak?  
Yaxshisi dilingda bo’lsin muhabbat,  
Oshkor etaverma uni jo’rttaga.  
Avliyo misoli jim yurgin faqat  
Ko’zlardan yiroq bo’l chiqma o’rtaga. (4, 53-bet)

Har bir inson ruhiyatining ana shu to’xtamida yashamog’i mumkin. O’z vijdoni oldida, Alloh oldida to’g’ri bo’lish kifoya. Ammo bunga ham yo’l qo’yilmasa-chi? Chunki:

Shundaylar bor, senga lutf aylab,  
Do’stman, deya qo’lin tutarlar.  
Lekin har zum qadaming poylab,  
Xato qilishingni kutarlarlar...

Xato qilsang, ularga bayram ,  
Yo'qsa zahru zaqqum yutarlar.  
Mayli, jindek, zarra bo'lsa ham,  
Xato qilishingni kutarlar.

Ular senga bir umr yo'ldosh,  
Sodiq hamroh kabi o'tarlar.  
Qabring uzra egasalar ham bosh,  
Xato qilishingni kutarlar. (7. 108-bet)

Xo'sh, xato qilishingni kutmasdan ham senga, ruhiyatingga tajovuz qilsa-chi? Lirik qahramon iltijo qiladi:

Dunyoni qizg'anma mendan, azizim,  
Men sening ko'changdan o'tmasman zinhor.  
Mening bu olamda o'z aytar so'zim,  
Va o'zim sig'inar mozorlarim bor...

Dunyoni qizg'anma mendan, azizim,  
Qalbingni yoqmasin shubha va so'roq,  
Men o'zga manzilga tikkanman ko'zim,  
U sening kulbangdan juda ham yiroq. (4, 323-bet)

Baribir foydasi yo'q. Chunki ular razil odamlar guruhiga mansub. U "Tilla baliqcha". U o'z dunyosidan boshqa dunyoni bilmaydi, his qila olmaydi va anglamaydi ham. Hayotdan nafas olib yashayotgan halol, siyrati pok inson to'siqlar girdobida suzib boryapti. Uni yana qanday zarbalar, sinovlar kutyapti ekan?

Abdulla Oripov o'zbek she'riyati maydoniga "Noma'lum odam" haykalini o'rnatdi:

Qaydan kelgandi-u ? Bilmadi kimsa,  
Qabrga ham jimjit kirib ketdi u.  
Menimcha, dunyoning ustidan rosa  
Miriqib qahqaha urib ketdi u. (4, 201-bet)

Lirik qahramon o'zligini anglagan shaxs. U tafakkur egasi. Ammo unga mos dunyo yo'q. Hamma muammo ana shunda. "Buyuk bir yurak dunyo ustidan jimgina qah-qah urib kulib ketdi". Nega? Chunki u o'ziga mos dunyoni topa olmadi. Qalb iztirob chekadi, lek uni hech kim his qilmaydi. Bu iztiroblar faqat qalbdagina, ko'nglidagina, yurakdagina g'alayon qilaveradi. Yurak esa o'rtanaveradi. Malham topmagan dilda fojiviy holat namoyon bo'la boshlaydi. U odamlardan, jamiyatdan chekina boshlaydi:

Baxtiyor har dilga oshno topilgay,  
G'ussali yurakka lekin yo'q hamdam.  
Do'stlar eshigi ham taq-taq yopilgay.

G'ussali qalb u yon gar qo'ysa qadam. (4. 89-bet)

Lirik qahramon ruhiyati charchagan. Nimadan? Hayotning adolatsizliklaridan, malomat toshlari , xatolaring kerak bo'lgan insonlarning nayranglaridan. Malham esa yo'q. Bobur hazratlari bejizga aytmagan:

Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim. [8. Bobur she'riyatidan, 38-bet]

Bu hayotning yozilmagan qonunlari kabi amal qiladi. Buyuk tafakkur egalariga hayotda yashash oson bo'lmagan. XX asr o'zbek she'riyati osmonining porloq yulduzi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon:

Muhit kuchlik ekan egdim bo'ynimni,  
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo'q endi.

Yolg'on xayollarga ko'chish yo'q endi..., -deya yozadi. (3, 481-bet)

Ha, olovqalb, otashnafas Cho'lpon qismatning ming bir chig'iriqlari qa'rida goh lovullab yondi, goh ruhiy zarbalar-la o'z isyonini siyratiga ko'mdi. Bevafo dunyoning o'yinlaridan dil larzaga keladi. Kechinmalar to'lg'onadi, iztiroblar yonadi. Yonib kulga aylansa yurak, bu olamga

nega kerak? U o'zga maskan izlay boshlaydi. Ammo bu maskan qayerda? Lirik qahramon kayfiyati o'zgarmoqda . U o'zini qayerga ursin? Ko'zlaridan oqayotgan yosh - taskinni sog'ingan ko'z yoshlardir.

Abdulla Oripov she'riyatidagi lirik qahramonning xarakteri, tafakkur dunyosi o'zgacha. Bu lirik qahramon hayot faylasufi. Biz yuqorida lirik qahramonning fojiviy holati yuz bermoqda degan edik. Uning siyrati azoblarda. Yolg'izlikka intiladi. Bu holat o'zlik taftishida namoyon bo'ladi.

Menga uzlat kerakdir, izdihomdan to'yanman,  
Turfa xil joylarga endi bormay qo'yanman. (7. 121-bet)

Bu holat, shubhasiz lirik qahramonning fojiviyligidir. Uzlat bu hech yolg'izlanish. Mazkur she'rni to'liq keltirishni joiz deb o'ylaymiz.

Uzlat izlab bormagan,  
Joyim balki qolmadi.  
Hech bir go'sha kelgin deb,  
Og'ushiga olmadi. (7. 122-bet)

Uzlat bu lirik qahramon uchun oxirgi chora. Bu oddiy holat emas, albatta. Mazkur tabiiy jarayonni his qilish, anglash uchun lirik qahramonning hayot taraqqiyot bosqichlarini boshdan oxirigacha o'rganish lozim deb o'ylaymiz.

Abdulla Oripov o'zbek she'riyatida bulbul obrazini yangidan kashf etdi:

Sen – bulbul, bulbul, bulbul, bulbul, bulbul, bulbul,  
Mening uchun sayrashingni bas qilaqol, bulbulim.  
Shom- u sahar tinim bilmay sharh aylading dilingni,

Qani, ayt-chi, bulbulinam, kim tushundi tilingni? (4. 76-bet)

Lirik qahramon ming iztiroblar og'ushida qiynaladi. Iztiroblar ichra to'lg'onadi. Axir uni tushunuvchi, his qiluchi, anglaguvchi dil yo'q, yurak yo'q. Axir u qalbini sharh aylab aytgan rozlarini tushunadigan, anglaydigan odam bo'lmasa bundan ortiq fojia bormikan dunyoda?

Birov seni nola dedi, birov dedi oh – fig'on ,  
Bulbul tilin bulbul bilar, men bilmasman , bulbuljon.  
Anglarmi deb behudaga roz so'ylama, qushim, hay,

Sen - bulbul, bulbulinam, seni bulbul tushungay. (4.76-bet)

Cho'lpon ta'biri bilan aytganda:

Kulgan boshqalardir, yig'lagan menmen,  
O'ynag'an boshqalar, ingrag'an menmen.  
Erk ertaklarini eshitgan boshqa,

Qullik qo'shig'ini tinglag'on menmen... (3. 413-bet)

Qalb go'zalligi shuning uchun ulug'ki, unga nurlar intiladi, soyalar chekinadi va oxiri yo'q bo'ladi. Inson dunyoga kelar ekan, insonlik matlabida har qanday sharoitda bo'lmasin sobit tura olsa u abadiy tahsinga musharraf bo'ladi. Abdulla Oripovning buyukligi, u yaratgan lirik qahramon ana shunday abadiyat tahsiniga loyiqdir. Bu she'riyatdagi "men" nurga tashna, hamisha nurlarni o'ziga chorlayveradi, chorlayveradi.

Do'sti g'arib kel, qo'lingni tut,  
Yuragingda yoqay alanga.  
Kel, bir zumga dunyoni unut,

Ko'tarayin seni balandga. (4. 204-bet)

"Abdulla Oripovning har bir she'rida olam-olam ma'no bor. Shoir she'rlari bilan haqiqat yo'lida doimiy qurol bo'lib xizmat qilishga qodir asarlar yaratdi" [9. Matyoqub Qo'shjonov. Hayot haqiqati va badiiy haqiqat. 31-bet].

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Козокбой Йўлдош. Очкич сўз. "Тафаккур" нашриёти. 2019. – 688 б.
2. Сувои Мели. "Сўзу сўз". Т.: "ШАРҚ". 2020. – 528 б.
3. Чўлпон. "Яна олдим созимни". Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – 576 б.

4. Орипов А. Танланган асарлар. Биринчи жилд. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. – 432 б.
5. Орипов А. “Эҳтиёж фарзанди”. Т.: “Ёш гвардия” нашриёти. 1988. – 224 б.
6. Рауф Парфи. “Сабр дарахти”. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1986. – 216 б.
7. Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2001. – 496 б.
8. Бобур шеъриятдан. Шарқ классик меросидан. Ўзбекистон КП Марказий комитети нашриёти, Т. 1983. – 144 б.
9. Қўшжонов М. “Ҳаёт ҳақиқати ва бадиий ҳақиқат”. “Фан” нашриёти. Т.: 1982. – 60 б.